

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**



Samarqand iqtisodiyot va  
servis instituti rektori  
M.E. Po'latov

2024 yil "29" avgust

Ro'yxatga olindi: FD-02-02

2024 yil "29" avgust

**BOSHQARUV HISOB**

**O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq

**Ta'lim sohasi:** 410 000 – Biznes va boshqaruv

**Ta'lim yo'nalishi:** 60412700 – Baholash ishi

Fan/modul kodi MANACT106		O'quv yili 2024 - 2025	Semestr 5	Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Boshqaruv hisobi	90	90	180
2	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Xalqaro tajribalarda buxgalteriya hisobi tizimi "moliyaviy buxgalteriya hisobi" (financial accounting) va "boshqaruv hisobi" (management accounting) kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Moliyaviy buxgalteriya hisobi bu asosan tashqi axborot foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot ko'rinishida axborotlarni taqdim qilish bo'lsa, boshqaruv hisobi esa ichki axborot foydalanuvchilar, ya'ni menejerlarga qarorlar qabul qilishlari uchun foydali axborotlarni yetkazib berish quyitizimiga aytiladi.</p> <p>Menejment qarorlarining sifati ko'p jihatdan menejerlarni o'z vaqtida, sifati, ob'yektiv va tezkor axborotlar bilan ta'min etish darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu masalani hal etishda boshqaruv hisobi muhim rol o'ynaydi. Bu o'z navbatida ushbu soha mutaxassislari oldiga yangicha vazifalar qo'ymoqda. Shu bois, ular boshqaruv hisobi masalalarini mutaxassislikka oid bevosita fan sifatida mukammal bilishlari talab etiladi.</p> <p>Mazkur fanning asosiy maqsadi bo'lg'usi mutaxassislarda boshqaruv hisobining konsepsiyasi bilan yaqindan tanishtirish, menejerlarni qabul qilayotgan qarorlarini asoslash maqsadida korxona xarajatlari, budjetlari, baholarini belgilash va korxonaning kelgusidagi rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha obyektiv, sifati va tezkor axborotlar bilan ta'min etishga doir yunalishiga mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish hisoblanadi.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari talabalarni boshqaruv hisobi maqsadlarida xarajatlar mohiyati va tasnifi, ustama ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olish hamda mahsulotlar tannarxini kosting qilishning usullari, budjetlashtirish va nazorat, xarajatlarning menejment tahlili, menejment qarorlarini asoslashda xarajatlar to'g'risidagi axborotlardan foydalanish, baholash asoslari bilan tanishtirish, ularda ushbu bilimlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga qaratilgan.</p> <p>Ushbu fanni chuqur o'rganish orqali talabalar menejment qarorlarini qabul qilishda Boshqaruv hisobi ma'lumotlarini tayyorlash, taqdim qilish va qo'llash bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'ladilar.</p>			
3	<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>I-BOB. "BOSHQARUV HISOBINI" FANIGA KIRISH</b></p> <p><b>1.1-mavzu. Boshqaruv hisobining paydo bo'lishi va tarixiy rivojlanishi. Professional tashkilotlar faoliyati</b></p> <p>Dastlabki buxgalteriya yozuvlari. Markaziy Osiy mamlakatlarida eramizning boshlarida shakllangan iqtisod, fan va madaniyatning hisob-kitob tizimi rivojlanishiga ta'siri. Hisob-kitob ishlarining taraqqiy ettirilishida islom dinining roli va ahamiyati.</p> <p>Tannarxi hisobi (Cost accounting)ning vujudga kelishi. Dastlabki, tannarx tushunchasi, mahsulotni tayyorlash qiymati, xarajatlarni taqsimlash, zavod schetlarining</p>			

qo'llanilishi va prinsiplari.

Xarajatlar hisobini rivojlantirishda fransus olimlari hissasi. Germaniyada sanoatning rivojlanishi. Sanoat mahsulotlarining tannarxini hisoblash vazifasi. Rus olimlarining tannarx hisobiga qarashlari.

Buxgalteriya hisobi fanining shakllanishi va rivojlanishida Amerika-Angliya davlatlari iqtisodchi olimlarining hissasi. "Direkt kosting" tizimini yoqlab chiqilishi. Moliyaviy buxgalteriya hisobi va Boshqaruv hisobiga bo'linishi. XX asrning boshlarida AQSHda va undan keyin Yevropada "Standart kosting" tizimi keng qo'llanila boshlanishi. "Javobgarlik markazlari bo'yicha hisob yuritish" g'oyasi.

AQSHdagi Menejment Buxgalterlar Instituti (IMA) roli. Buyuk Britaniya Menejment Buxgalteriya Hisobi Charter Instituti (CIMA)ning Boshqaruv hisobini rivojlantirishdagi hissasi.

Mustaqillik davrida hamdo'stlik davlatlari, jumladan O'zbekistonda Boshqaruv hisobini rivojlantirilishi.

Boshqaruv (menejmentlik) hisobining konsepsiyasi, uning maqsadi va vazifalari. Ishonchli va vijdonan aks ettirish (True and Fair View Concept) - asos bo'luvchi konsepsiya. Menejmentlik buxgalteriya hisobining konsepsiyasi, uning maqsadi va vazifalari hamda tashkil etilishi bilan bog'liq fundamental masalalari. Uning asosiy jabhalari.

Boshqaruv hisobining maqsadi. Boshqaruv hisobining umumiy vazifalari: rejalashtirish va kompaniya siyosatini shakllantirish (planning and policy formulation); interpretatsiya jarayoni (interpretation process); qarorlar qabul qilish jarayonida yordam berish (assists in decision-making process); kontrolling (controlling). hisobotdorlik (reporting); tashkil etish unsurlari (facilitates organizing).

Boshqaruv hisobining kompaniya darajasida aniqlashtirilgan vazifalari.

Menejmentning funksiyalari va unga mutanosib boshqaruv hisobiga oid bo'lgan funksiyalari.

Korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etish zaruriyati. Korxonani boshqarish va nazorat qilish tezkor, operativ hamda ishonchli axborotlarga tayanishi. Axborotlar tarkibi. Korxona faoliyatini qisqa muddatga rejalashtirish, rejalarning bajarilishini kunlik nazorati natijalari, ta'minotchilardan olinadigan xom-ashyo va materiallar to'g'risida kunlik axborot, mashina-soatlar va mehnat soatlari to'g'risidagi axborotlar, kunlik ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, brak mahsulotlar to'g'risida ma'lumot, mahsulot birligining tannarxi, sex faoliyatining samaradorligi, xodimlarning mehnati unumdorligi, asbob-uskunalarning holati va boshqa Boshqaruv hisobining obyektlariga doir axborotlar qisqacha tavsifi va ahamiyati.

## **1.2-mavzu. Boshqaruv hisobining menejment tizimida tutgan o'rni hamda qarorlar qabul qilishda ishtiroki**

Boshqaruv hisobi menejerlarga moliyaviy va nomoliyaviy axborotlar bilan ta'min etishi: rejalashtirish va nazorat; kompaniyalar faoliyatiga doir ma'lumotlar bazasini to'plash; menejment qarorlarini qabul qilish.

Menejmentning budgetlar va bajarilish hisobotlariga tayanishi. Haqiqiy natijalarning budgetga nisbatan tebranishi. Bajarilishlarni o'lchash (baholash)ning quyi tizimi vujudga kelishi. Ushbu quyi tizimning rejalashtirish quyi tizimi bilan "qaytarma bog'liqlik (feedback)"ning o'rnatilishi.

Menejmentning umume'tirof etilgan o'zaro bog'liq va ketma-ket amalga oshiriladigan bosqichlari: tashkilotning eng umumiy va maxsus maqsadlarini belgilash; maqsadlarga erishish uchun rejalari ishlab chiqish (budgetlar); harakat (amalga oshirish); bajarilishlarni baholash.

Harakatlar (amalga oshirish) va bajarilishni baholash jarayonidagi "qaytarma bog'liqlik"ni yuzaga kelishi.

Buxgalteriya hisobida ma'lumotlar bazasi va ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish.

Zamonaviy menejment tizimida qarorlar qabul qilish. Qarorlar qabul qilish jarayoni bosqichlari: masalalar (muammolar)ni yoritish; muqobil variantlarini identifikatsiyalash; zarur axborotlarni to'plash; qarorlar qabul qilish.

Buxgalterlarning menejmentda tutgan o'rni va ularning menejment jarayonida ishtirok etishi. Menejmentning chiziqli, staf va funksional vakolatlari.

Moliyaviy ishlar departamenti faoliyati davomida "trishureship" (treasureship) va "kontrollorship" (controllership) funksiyalari.

Boshqaruv hisobining tarkibiy qismlari

Yaxlit buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etuvchi boshqaruv buxgalteriya hisobi va moliyaviy buxgalteriya hisobining tarkibiy elementlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi.

Buyuk Britaniyadagi SIMA tashkiloti tomonidan tayyorlangan boshqaruv hisobi bo'yicha lug'atda boshqaruv hisobining elementlari: strategik rejalashtirish; moliyaviy menejment; operatsiyalar nazorati uchun axborotlar (tannarx buxgalteriya hisobi/budjetlashtirish); styuardesli hisobot (moliyaviy buxgalteriya hisobi) (stewardship reporting); qarorlar tayanchi; ichki audit.

Menejment hisobining strategik qarorlar qabul qilishda o'ta muhimligi.

Boshqaruv hisobi fani tarkibiy elementlari: tannarx hisobi; qisqa muddatli rejalashtirish (budjetlashtirish); uzoq muddatli rejalashtirish; bahoni shakllantirish, transfert baho, biznes tarkibini o'zgartirish (restrukturizatsiya) bo'yicha qarorlar qabul qilish hamda segmentar hisobot, strategik Boshqaruv hisobi.

Strategik boshqaruv hisobi strategik qarorlarni qabul qilinishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi. Strategik boshqaruv hisobining maqsadi va vazifalari. Taktik va strategik boshqaruv hisobining taqqoslama tavsifi.

Boshqaruv hisobining moliyaviy hisob hamda tannarx hisobi bilan aloqalari va farqli jihatlari

### **1.3-mavzu. Boshqaruv buxgalterlarining professional etikasi**

Buxgalter professiyasi ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan professiya. Jamoat manfaatlari nuqtai nazaridan buxgalterlar majburiyatlari. Boshqaruv buxgalter kasbi etika qoidalari qabul qilinishi talab etiladigan professional soha. Etika qoidalari. Professional etika qoidalari ma'naviy funksiyalari.

Buxgalterlarning xalqaro federatsiyasi tomonidan professional buxgalterlarning etika kodeksi ishlab chiqilishi. Etika kodeksida buxgalteriya professiyasiga qo'yiladigan asosiy talablari: ishonchlilik; professionalizm; xizmatlar sifati kafolatlanganligi; ishonch.

AQSHdagi menejment buxgalterlar instituti (IMA - Institute Of Management Accountant) tomonidan ishlab chiqilgan menejment buxgalterlarining kompetentlik, konfidentsiallik, to'g'rilik va ishonchlilik bo'yicha sifat tavsiflari. IMAning keng qamrovli prinsiplari: to'g'rilik (honesty), adolatlilik (fairness), obyektivlik (objectivity) va mas'uliyatlilik (responsibility).

A'zolar tomonidan rioya qilmasliklari intizomiy choralar qo'llanilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan standartlar qoidalari: kompetentlik (competence); konfidentsiallik (confidentiality); to'g'rilik (integrity); ishonchlilik (credibility).

Mamlakatimizda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunda maxfiylikka rioya qilinishi mustahkamlanishi.

O'zbekiston Respublikasida "Professional buxgalterlarining etika kodeksi". Kodeksdagi asosiy prinsiplar: tartiblilik (poryadochnost); obyektivlik (obyektivnost); professional kompetentlik va yetarli darajadagi sinchkovlik (professionalnaya kompetentnost i doljnaya tshatelnost); konfidentsiallik (konfidensialnost); professional xulq-atvor (professionalnoye povedeniye).

Me'yoriy tartib qoidalarida buxgalterlar shaxsiy fazilatlarini: kishilar bilan muloqat qila olish qobiliyati, intellektual innovatsion yaratuvchanlik qobiliyati, o'ziga ishonch, to'g'ri so'zlik va javobgarlik hamda boshqa bar qancha sifatlar.

### **1.4-mavzu. Boshqaruv hisobining predmeti va metodi**

Boshqaruv hisobining predmeti va ob'ektlari tavsifi.

Korxonalar menejment tizimida buxgalteriya hisobiga qo'yilayotgan talablar. Boshqaruv hisobining mazmuni.

Boshqaruv hisobi mustaqil fan tarmog'i sifatida belgilovchi omillari: maqsadi; hisob subyektlari, predmeti va obyekti, qoidalar va prinsiplari; metodi (usul va uslublari); protsedurasi hamda sikli; Boshqaruv hisobi jarayoni mahsuloti; axborot foydalanuvchilari; professional menejment buxgalterlari etika qoidalarini.

Boshqaruv hisobining predmetini tashkil etuvchi obyektlari: korxona va tashkilotlarda yuz bergan iqtisodiy hodisalar, operatsiyalar, jarayonlar va ularga oid bajarilishlar; mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxi; budjetlar va strategik rejalar; alohida faoliyat turlari; loyihalar, grantlar, shartnomalar, harakatlar dasturlari va yo'l xaritalari; segmentlar va javobgarlik markazlari; ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish va xizmatlarning turlari; standartlar, me'yorlar va normativlar hamda ulardan chetlanishlar; ilmiy-tadqiqot ishlanmalari, mahsulot dizaynini takomillashtirish, innovatsiyalar, axborot texnologiyalari mahsulotlari; narxlashtirish, jumladan, transfert bahoni shakllantirish; qarorlarning muqobil variantlari; ichki hisobot berish tizimi.

Boshqaruv hisobi predmetini tashkil qiluvchi obyektlarning har biri o'ziga xos tasnifiy va tavsifiy jihatlari. Korxonalarda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar an'anaviy tarzda tasnifi: ta'minot jarayoni, ishlab chiqarish jarayoni va sotish jarayoni.

Boshqaruv hisobi fani metodi

Boshqaruv hisobi metodiga ta'rif. boshqaruv hisobida qo'llaniladigan metod va usullarni tasnifi va tavsifi: umumtan olingan bilishning falsafiy kategoriyalari hamda metodlari; iqtisodiy operatsiyalar, jarayonlar va bajarilishlarni tan olish, qayd qilish, tasniflash, guruhlashda qo'llaniladigan usullar; baholash yondashuvlari, tizimlari va umume'tirof etilgan usullari; buxgalteriya hisobida ma'lumotlarga ishlav berish, ma'lumotlarning realigini tekshirish, hisobotlarni tuzishda qo'llaniladigan an'anaviy (umume'tirof etilgan) usullari; costing (kosting) tizimlari va usullari; iqtisodiy tahlil, statistika, iqtisodiy matematik metodlar; marketing va menejment hamda boshqa iqtisodiy fanlardagi metod va usullar; rejalashtirish (budjetlashtirish) va strategik rejalashtirish metodlari; narxlashtirish va transfert narxlarini belgilash usullari.

Boshqaruv hisobida indekslash, ko'rsatkichlarning minimal va maksimal miqdorini belgilash (mini-maks usuli), grafika usuli, chiziqli tenglamalar, kvadrat tenglamalar, omilli tahlil, muhandislik hisob-kitoblari, turli jarayonlarga doir hisob-kitoblarni avtomatlashtirish algoritmlari va dasturlardan foydalanish.

Boshqaruv hisobining muhim prinsipi qonunda taqiqlanmagan har qanday usul va uslublardan hamda protseduralardan foydalanish mumkin ekanligi. Qo'llanilgan usul samarali, boshqaruv uchun maqbul bo'lishi, to'g'ri taktik va statik qarorlar qabul qilish imkonini yaratishi, boshqa kompaniyalarning statusi va mavqega noqonuniy ta'sir ko'rsatmasligi, halollik, to'g'rilik va adolat amal qilishi.

Boshqaruv hisobining o'ziga xos prinsiplari: operativlik, o'z vaqtidalik va muntazamlik; taqdim etilayotgan axborotlarning foydali, ishonchli, to'la, aniq va sodda bo'lishligi; taqdim qilinayotgan axborotlarning konfidentsialligi; Boshqaruv hisobining moslanuvchanligi; axborotlarning samaradorligi va salmoqliligi; boshqaruv hisobida nazorat tizimi o'rnatilganligi; Boshqaruv hisobi tizimining prognozlashuvi; menejerlar tomonidan xarajat moddalarining nazorat qilinishi; bajaruvchilarga motivatsiya belgilanganligi.

## II-BOB. TANNARX HISOBI

### 2.1-mavzu. Tannarx hisobi mohiyati va vazifalari. Xarajatlarni turkumlash va ularning hisobi

Tannarx hisobining (cost accounting) mohiyati va vazifalari.

Tannarx hisobining maqsadi. Hozirgi kunda tannarx hisobi tizim sifatida yuzaga kelishi. Tannarx hisobi Boshqaruv hisobining eng muhim tarkibiy qismi va axborot manbai hisoblanishi. Tannarx hisobi Boshqaruv hisobining fundamentini tashkil etishi. Tannarxni hisoblash (Costing), Tannarx hisobi (Cost accounting), Tannarx buxgalteri (Cost Accountancy), Tayyor mahsulotlar tannarxi hisobi, Mahsulot birligi tannarxi kabi tushunchalarning tavsifi.

Tannarxni o'lchash va baholash. Tannarxga oid buxgalteriya yozuvlarini amalga oshirish. Tannarx hisoboti. Tannarx tahlili. Tannarxni qisqartirish va optimallashtirish masalalari.

Tannarx hisobining umume'tirof etilgan vazifa (objectives)lari. Menejerlarning tannarx hisobini tashkil etishdan oladigan naflarini belgilovchi omillar.

Tannarx hisobi tizimini tashkil etishda hisobga olish lozim bo'lgan omillar.

Sohaga doir iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish bo'lmagan xarajatlar hamda tannarxi tushunchalari tavsifi va qo'llanilishi.

Buxgalteriya hisobining konseptual asoslarida xarajatlarga keltirilgan ta'rif. Boshqaruv hisobida xarajatlar tushunchasiga berilgan ta'rif.

Xarajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi.

Xarajatlarni (expenses) korxonaning odatdagi faoliyati (ordinary) bilan bog'liq xarajatlar va odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarga (losses) bo'linishi.

Korxonaning odatdagi faoliyati kursi jarayonida yuz bergan operatsion, moliyaviy va innovatsion ilmiy-tadqiqotlar faoliyatlari natijasida yuzga kelgan xarajatlar.

Odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar tarkibi.

Operatsion xarajatlar: ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqarish bo'lmagan xarajatlar.

Ishlab chiqarish xarajalarini tannarx obyektlariga olib borish usuliga qarab bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va bilvosita (to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan) ishlab chiqarish xarajatlarga bo'linishi.

Mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxi: to'g'ridan-to'g'ri material xarajatlari (bevosita); to'g'ridan-to'g'ri mehnat xarajatlari (bevosita); ustama ishlab chiqarish xarajatlari (bilvosita). Jami tannarx tushunchasi va uni aniqlash tartibi.

Zaxiralarga sindirilgan xarajatlar (inventoriable cost). Ishlab chiqarish korxonalari va savdo-tijorat korxonalarida zaxiralarga sindirilgan xarajatlarning tashkil topish xususiyatlari.

2-son BHXS "Zaxiralar" standartga muvofiq tayyor mahsulotlar tannarxi elementlari tavsifi. Tovar-moddiy zaxiralar (TMZ)ning boshlang'ich tannarxi (historical cost), zaxiralar xarid tannarxi (cost of purchase), qayta ishlash xarajatlari (cost of conversion) va zaxiralarni joriy holatga va joriy joylashtiriladigan joyiga keltirish bilan bog'liq boshqa ustama xarajatlar (other overhead) tavsifi.

Tannarx obyekti mazmuni va mohiyati. Tannarx obyektlari: mahsulot yoki xizmatlar, zavod qurilishi, ishlab chiqarish binosini ijaraga olish, asbob-uskunalarni o'rnatish, faoliyat turlari (ishlab chiqarish, savdo, marketing faoliyati va boshqa faoliyatlar), sexlar va bo'limlar, loyihalar, kontraktlar, grantlar, xizmat safarlari, xuquqiy bo'lim, loyihalashtirish bo'limi va savdo bo'limlari tavsifi.

Tannarxni mo'ljallanganligi (cost assignment) va tannarxni taqsimlash (cost allocation).

Korxona xarajatlarini menejment maqsadlarida tasniflash asoslari

Korxona xarajatlarini menejment qarorlarini qabul qilish, rejalashtirish va nazorat qilish maqsadlarida tasniflanishi. Tannarx elementlari. Tannarx tabiati (nature), funksiyasi va xulq-atvori (behaviour).

Tannarxning tasniflanishi.

Tannarx obyektlariga olib borish usuli bo'yicha: bevosita va bilvosita xarajatlar.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi (faollik darajasi, ya'ni tannarx drayverining ta'siriga (behaviour) bog'liqligiga) qarab: o'zgaruvchan, doimiy, yarim o'zgaruvchan va yarimdoimiy xarajatlar.

Mahsulot jami hajmi va birligiga nisbatan hisoblanganligiga qarab: umumiy va o'rtacha tannarx.

Tannarx drayveri tushunchasi. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlarni aniqlash.

Qabul qilinayotgan qarorlarga bog'liqligiga qarab: relevant va norelevant xarajatlar.

Tashkilotchilik darajasiga bog'liligiga qarab: saqlanish mumkin bo'lgan va saqlanish mumkin bo'lmagan xarajatlar.

Nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan xarajatlar.

Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxi elementlari (kategoriyalari): to'g'ridan – to'g'ri material xarajatlari; to'g'ridan – to'g'ri mehnat xarajatlari; ustama ishlab chiqarish xarajatlari.

Material xarajatlari o'z navbatida bevosita material (to'g'ridan to'g'ri) va bilvosita material xarajatlarga bo'linishi. Mehnat xarajatlarning bevosita va bilvosita mehnat xarajatlarga bo'linishi.

Qaytarilmaydigan xarajatlar. Muqobil xarajatlar. O'suvchi (inkrement) va marjinal (chegaralangan) xarajatlar.

## **2.2-mavzu. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi to'g'risidagi hisobot va davr xarajatlari**

Boshqaruv hisobi maqsadlarida biznes sektorlari: ishlab chiqarish (Manufacturing-sector companies), savdo (Merchandising-sector companies) va xizmat ko'rsatish sektori (Service-sector companies)

To'g'ridan-to'g'ri material, ishlab chiqarish jarayoni va tayyor mahsulotlar zaxiralari.

Har bir sektordagi xarajatlarni foydani harakatlantirish davriga olib borilishiga qarab mahsulot tannarxi va davr xarajatlarga bo'linishi.

Mahsulot tannarxi ko'rsatkichlarining shakllanish bosqichlari. Ishlab chiqarishga chiqarilgan material tannarxi. Mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi. Tayyor mahsulot tannarxi. Mahsulotni sotish tannarxi (sotilgan mahsulot tannarxi).

Boshqaruv hisobi maqsadlarida tayyor mahsulotlar tannarxi to'g'risidagi hisobotini tuzish.

Davr xarajatlari va uning tarkibi: sotish xarajatlari va ma'muriy-boshqaruv xarajatlari. Zaxiralarga singdirilgan tannarx va davr xarajatlari o'rtasidagi farqli jihatlar.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda tayyor mahsulotning sotish tannarxi va davr xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilishi. Mahsulot tannarxi va davr xarajatlarga oid ma'lumotlar.

Mahsulot tannarxi ko'rsatkichlarini buxgalteriya schotlarida aks ettirish. Korxonalarda tannarx hisobini yuritish tizimlarining mahsulot ishlab chiqarish tipi, qo'llaniladigan tizimi va mahsulot tipiga bog'liqligi.

## **III-BOB. TANNARXNI BAHOLASH VA ULAR DINAMIKASI**

### **3.1-mavzu. Tannarxning tabiati (Cost Behavior). O'zgaruvchan va doimiy xarajatlar**

Tannarxning tabiati (Cost Behavior)ga tushunchasi va uning tavsifi. Xarajatlar tannarx drayveri, oshishi va kamayishiga qarab o'zgarishi bo'yicha "o'zgaruvchan" (doimiy bo'lmagan), "doimiy", "yarimo'zgaruvchan" va "yarimdoimiy" xarajatlarga tasniflanishi. Tannarx drayveri (omillari)ga misollar.

O'zgaruvchan xarajatlar (Variable cost). O'zgaruvchan xarajatlarning grafikasi.

Doimiy xarajatlar (Fixed cost). Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan doimiy xarajatlar. Doimiy xarajatlarning grafikasi.

O'zgaruvchan va doimiy xarajatlarning muhim xususiyatli jihatlari.

Yarimdoimiy yoki zinali o'suvchi doimiy xarajatlar (Stepped fixed cost). Relevant diapazon. Yarim doimiy xarajatlar grafikasi.

Aralash xarajatlar yoki yarim o'zgaruvchan xarajatlar (semi-variable costs).

### **3.2-mavzu. Xarajatlar chiziqli funksiyalari tenglamasi. Xarajatlar funksiyalarini baholash usullari**

Xarajatlarning chiziqli funksiyasi tushunchasi. Yarimo'zgaruvchan xarajatlarning  $Y = a + bX$  to'g'ri chiziqli funksiyaning tenglamasi.

Xarajatlar omillari. Oddiy regressiya va Ko'plik regressiya tenglamalar. Regressiya to'g'ri chiziqli  $Y = a + bx$  tenglamasi.

Xarajatlar funksiyalarini aniqlash usullari.

Schotlarni tahlil qilish usulida schetlarni tahlil qilish natijalarini jadvalda rasmiylashtirish. Jadval ma'lumotlari asosida xarajatlar funksiyasi formulasini keltirib chiqarish.

Eng katta va kichik qiymat metodi (The high-low yoki Min-Max method) usulining mohiyati.

Har bir mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar. Ishlab chiqarish faolligi va xarajatlarning o'zgarishi. Ushbu xarajatlar funksiyasini grafik ko'rinishida aks ettirish.

Diagramma tuzish usulida har bir faoliyat turi bo'yicha to'plam xarajatlarning grafikka joylashtirilishi va chiziqli tenglamaning shakllantirilishi. Asbob-uskunalarining ish vaqti va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik grafigi.

Regressiya tenglamasi usulining mohiyati va qo'llanilishi.

Tannarx funksiyalari va ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash usullarining amaliyotda qo'llanilishi, tannarxni nazorat qilish, boshqarish va uni optimallashtirishdagi roli va ahamiyati.

## **IV-BOB. TANNARX ELEMENTLARINING HISOBI: MATERIALLAR HISOBI, MEHNAT BO'YICHA XARAJATLAR HISOBI. USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI HISOBI**

### **4.1-mavzu. Tannarx elementlarining hisobi: materiallar hisobi**

Materiallar nazoratining funksiyalari. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlash va hisobga olish tizimlari.

Zaxiralarni boshqarishning maqsadi. To'g'ridan-to'g'ri (asosiy) va bilvosita (yordamchi) materiallar. Xarid qilish talabnomasi va buyurtmasi. Qabul qilinganligi to'g'risida hisobot. Zaxiralar kartochkalarini yuritish.

Materiallarning harakati bilan bog'liq ishlab chiqarish faoliyati va buxgalteriya hisobi faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik.

Zaxiralar tushunchasi va ularning tannarxi. 2-son BHXS "Zaxiralar" standartida zaxiraga ta'rif. Zaxiralar tarkibi: qayta sotish uchun xarid qilingan va saqlanayotgan



tovarlar; tayyor mahsulotlar; tugallanmagan ishlab chiqarish; ishlab chiqarishda foydalanish uchun xom-ashyo va materiallar; sotilishi tan olingunga qadar servis kompaniyalari xizmati tannarxi.

Buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq TMZlarni xarid qilish qiymati. Xarid qilish jarayonida taqdim etiladigan savdo chegimalari, qoplamalar va boshqa analogik moddalar.

2-son BHXSDa zaxiralarning qayta ishlash xarajatlari: to'g'ridan-to'g'ri mehnat haqi xarajatlari, ustama ishlab chiqarish (production overhead) xarajatlari.

Zaxiralarning hisobga olishning davriy va uzluksiz tizimlari.

Davriy tizimda realizatsiya qilingan TMZlar tannarxini aniqlash formulasi. Xorij tajribasida davriy zaxiralar tizimini qo'llash orqali tovarlarning boshlang'ich qiymati, tovarlarning sotish tannarxi va moliyaviy natijalarni aniqlash uchun foydalanadigan schotlar.

Zaxiralarning xarid tannarxni aniqlash jarayonini buxgalteriya hisobi schetlarida aks ettirish tartibi. Savdo va ishlab chiqarish korxonalari misolida davriy zaxiralar tizimida tovar zaxiralarning xarid va sotish tannarxini aniqlashning metodologik tartibi.

Uzluksiz zaxiralar usulida zaxiralarning harakati, realizatsiya qilingan tovarlar tannarxini aniqlash jarayoni bilan bog'liq operatsiyalarni schotlarda aks ettirish tartibi. Qo'llaniladigan schotlar tizimi. Ilg'or xorijiy tajribalarda uzluksiz tizimda buxgalteriya schotlarida aks ettirishdagi yondashuvlari.

Uzluksiz va davriy hisob tizimlarining buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirish tartibining solishtirma jadvali. Uzluksiz va davriy tizimlarning imkoniyatlari va kamchiliklari.

Zaxiralarni baholash usullari. Zaxiralar darajasini rejalashtirish va nazorat.

Zaxiralarni baholash usullari mohiyati. Zaxiralar ikkita miqdordlardan eng kichigi bo'yicha baholanishi: (a) tannarxi (cost value) yoki (b) sof sotish mumkin bo'lgan qiymati (realizable value)". Sof sotish mumkin bo'lgan qiymati (NRV). Normativ tannarx usuli. Chakana savdoda chakana narx metodi qo'llanilishi.

Chiqarilgan materiallarning qiymatini va oxirgi zaxiralarni baholashda qo'llaniladigan usullar: hammasini identifikatsiyalash usuli; FIFO (birinchi kirim birinchi chiqim); LIFO (so'ngi kirim birinchi chiqim); o'rtacha salmoqli qiymat (AVEKO); tannarxdan va realizatsiyaning sof qiymatining eng kichigi metodi; chakana baho metodida TMZ hisobi; yalpi foyda metodi; NIFO (kelgusi kirim birinchi chiqim); normativ qiymat bo'yicha TMZlarni hisobga olish metodi. Zaxiralarni baholash usullarining amaliy misollarda qo'llanilishi.

TMZlarni baholash usullari kamchiliklari va afzalliklari. Kompaniyalarda Kompleks Sifat Menajmenti (TQM) tizimi mohiyati va qo'llanilishi.

Zaxiralarga qilingan sarmoyalar. Zaxiralar tannarxi kategoriyalari va uning tarkibi: Buyurtma qilish tannarxi. Saqlash tannarxi. Zaxiralarni chiqarish tannarxi.

Zaxiralarning yetishmasligi bilan bog'liq xarajatlari: sotish yo'qligi natijasida yo'qotishlar; yaroqsiz mahsulotlar bilan bog'liq xarajatlar; qimmatroq materiallarni o'rniqa qo'yish bilan bog'liq xarajatlar.

Mahsulotlarni kechikib jamlanganligi va jo'natganligi uchun jarima xarajatlari.

Zaxiralarning optimal darajasini belgilash. Zaxiralarning qayta buyurtma berish optimal nuqtasini aniqlash. Zaxiralarning optimal miqdorini aniqlashda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan talablar hamda zaxiralarni saqlash qiymati va buyurtmalarni bajarish qiymatini o'z ichiga olgan relevant xarajatlarni hisobga olish.

Buyurtmalarni bajarish qiymati. Buyurtmaning optimal miqdorini (EOQ) yoki optimal miqdordagi partiyani aniqlash. Buyurtmaning optimal miqdorini aniqlash usul: turli xil buyurtmalar miqdorida to'plam qiymatni aks ettiruvchi jadval yordamida; grafik usuli; formula yordamida.

Buyurtmalar soni. Jami buyurtma xarajatlari. Qayta buyurtma berish nuqtasi va buyurtma sikli.

Materiallar chiqindisi hamda defekt birliklar hisobi.

Ishlab chiqarish jarayoni materiallar chiqindisi yuzaga kelishi. Material chiqindisi sifatida tan olinishi: chiqindi materiallar biznesning normal operatsion jarayonida foydalanib bo'lmasligi; chiqindi materiallar bozor qiymatiga ega bo'lishi.

Chiqindi materiallar bilan qaytarilgan materiallar farqi. Chiqindilarni hisobga olishda yondashuvlar: chiqindi material ajralib chiqqan maxsus mahsulotning tannarxini kamaytirishiga olib borish; umumiy mahsulot tannarxining kamayishiga olib borish.

Chiqindi materiallarni sotishdan olingan daromad va ular hisobidagi yondashuvlar.

Kompaniyalar mahsulotlar sifatini standartlarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida sifat nazoratini o'rnatish.

Ishlab chiqarish jarayonida defekt birliklar yuzaga kelishi. Ularning tasarruf qilinishi. Defekt birliklar normal narxdan past narxga sotilishi, qayta ishlanishi yoki normal mahsulot kabi sotilishi. Defekt birliklarni iqtisodiy jihatdan qayta ishlash mumkin bo'lmagan holatlarda buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi.

Defekt birliklarni sotish mumkin bo'lmagan hollar. Defekt birliklar sotilishi. Defekt birliklar qayta ishlanishi.

#### **4.2-mavzu. Tannarx elementlarining hisobi: mehnat bo'yicha xarajatlar hisobi**

Mehnatga haq to'lashning turlari va hisoblanishi.

Korxona menejrlari va buxgalterlari mehnat haqi bo'yicha majburiyatlari va javobgarligi. Mehnat qonunchiligining mehnat haqi hisobini tashkil etishga ta'siri.

Xalqaro standartlarda xodimlar naflari (employee benefits) tushunchasiga berilgan ta'rif. 17-son BHXS "Xodimlarni rag'batlantirish" standartida xodimlarni rag'batlantirishga doir qoidalar.

Xodimlar naflari ishchi kuchiga beriladigan qoplamalar ko'rinishida ishlab chiqarilgan mahsulot hamda xizmatlar sohasida shakllangan tannarxning tarkibiy qismi ekanligi. Ishchi kuchi bilan bog'liq xarajatlar - mehnat haqi xarajatlari.

Mehnat haqi xarajatlari hisobining asosiy maqsadi. Ishchi kuchi bo'yicha xarajatlar hisobi yo'nalishlari. Xorij tajribalarida mehnat haq to'lash tizimi xususiyatlari.

Boshqaruv hisobi maqsadlarida mehnat haqi bilan bog'liq ma'lumotlar konfidentsialligi.

Ishchilarning ishlab chiqarishga doir mehnat haqi. Ishlab chiqarishga oid bo'lgan mehnat haqi bo'yicha xarajatlarning tannarx obyektiga olib borilishiga qarab: to'g'ridan-to'g'ri mehnat haqi; bilvosita mehnat haqi. Ishlab chiqarishga oid bo'lmagan mehnat haqi xarajatlari.

O'zgaruvchan mehnat haqi xarajatlari. Doimiy mehnat haqi xarajatlari. Aralash mehnat xarajatlari.

Mehnat haqini hisoblash tizimlari: mehnatga haq to'lashning vaqtbay tizimi; mehnatga haq to'lashning ishbay tizimi; kombinatsiyalashgan ish haqi tizimi; mukofat rag'batlantirish tizimi. Mukofot: ishchi 50% tejab qolgan vaqt uchun mukofat; sarflangan vaqtni yo'l qo'yiladigan vaqtga nisbati ko'rinishida aniqlanishi.

Guruh bo'lib moddiy rag'batlantirish tizimiga asoslanishi.

Mehnat xarajatlari boshlang'ich hisobi va xodimlarning qo'nimsizligi.

Xodimlarga asosiy ish haqidagi tashqari boshqa to'lovlar, jumladan mehnat ta'tili uchun to'lovlar, ish vaqtidan tashqari ish, turib qolishlar uchun to'lovlar. Ularni hisoblash va xarajatlarga olib borish tartibi.

Normativ soat. Mehnat unumdorligi koeffitsiyenti. Mehnat haqi stavkasi bo'yicha farqlanish va mehnat unumdorligi bo'yicha farqlanishi.

Korxonada ishlab chiqarish ishchilari tomonidan turli xil ishlarga sarflangan vaqtlar to'g'risidagi axborotlarning manbai: buyurtmalar kartochkasi; ishchi tabellari; turib qolishlar kartochkasi.

Mehnat haqi xarajatlarining to'g'ridan-to'g'ri hamda bilvosita ekanligini aniqlash. Ishchilarning mehnat soatlari to'g'risida detalli axborotlar olishning usullari.

Kunlik mehnat tabelida va ishning mehnat vaqti tabeli. Turib qolishlar kartochkasi va buyurtmalar kartochkalarini yuritish tartibi.

Mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot birligiga to'g'ri keladigan mehnat haqi xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari. Xodimlarning qo'nimsizligi. Xodimlar qo'nimsizligini tahlil qilish. Xodimlarni almashtirishda korxona tomonidan qo'shimcha amalga oshiriladigan xarajalar.

Xodimlar qo'nimsizligini nazorat qilish, personal harakatini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadida inson resurslari bo'limida xodimlar to'g'risida ma'lumotlar to'planishi, saqlanishi hamda tahlil qilib borilishi. Xodimlarning ishdan chiqarishda oldini olish mumkin bo'lgan holatlar hamda oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar.

Oldini olish mumkin bo'lgan hollarda xodimlarning ishdan ketish holatlarini bartaraf etish bo'yicha choralar.

#### **4.3-mavzu. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarni taqsimlashning maqsadi, asosiy mezonlari va yondashuvlari**

Ustama ishlab chiqarish xarajatlari hisobi xususiyatlari.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlari (UICHX) mohiyati. UICHXlar tarkibi: bilvosita materiallar; bilvosita mehnat haqi; ishlab chiqarish vositalari va bino amortizatsiyasi; elektr-energiya; yoritish, isitish va sovitish; mol-mulk solig'i; mol-mulk sug'urtasi; ishchilarning ovqatlanishi va ularga meditsina xizmatini ko'rsatish; boshqa xarajalar.

Xarajatlarni taqsimlash. Xarajatlarni taqsimlashning asosiy maqsadlari. Xarajatlarni taqsimlashda foydalaniladigan asosiy mezonlar: sabab va oqibat; naf olish; adolatlilik yoki tenglik; qo'llab-quvvatlashga qobiliyati.

Ustama xarajatlarni tannarx obyektlari bo'yicha taqsimlash mohiyati va ahamiyati. Menejerlar tomonidan xarajatlarni taqsimlashda mustaqil qarorni qabul qilishi: tannarx obyektni tanlashi, qaysiki faoliyat turi yoki alohida hisobga olish mumkin bo'lgan moddalar; tanlangan tannarx obyektiga olib boriladigan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni aniqlab olish; tanlangan tannarx obyektiga taqsimlash uchun bilvosita xarajatlarni, ya'ni tannarx zarrachalarini aniqlash; har bir tannarx zarrachasi uchun xarajatlarni taqsimlash bazasi belgilash.

Mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxi shakllanishi, ya'ni bilvosita va bevosita tannarxi elementlarining tannarx obyektlariga olib borish texnologiyasi.

Xarajatlarning tannarx obyektiga taqsimlash uchun asos bo'luvchi xarajatlarning taqsimlash bazasi yoki xarajatlar omillari ekanligi. Sabab-oqibat taqsimlanishi va sharti taqsimlash atamallari qo'llanilishi. An'anaviy taqsimlash tizimi va kostingning funksional ABC ("Activity-Based Costing") tizimlari ahamiyati va qo'llanilishi.

Buxgalteriya hisobi maqsadlarida ishlab chiqarish bo'limlari va xizmat ko'rsatuvchi bo'limlar o'rtasidagi farqlar.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlarni taqsimlashning ikki bosqichli jarayoni.

Ustama xarajatlarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bo'yicha taqsimlashda xarajatlarni ikki bosqichli jarayoni.

Taqsimlashning ikki bosqichli jarayonidan foydalanishda qadamba-qadam amalga oshirilishi: barcha ishlab chiqarish ustama xarajatlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi xarajat markazlari bo'yicha taqsimlash; xizmat ko'rsatuvchi xarajat markazlariga (servis xarajatlari markazi) to'g'ri keladigan xarajatlarni xarajatlarning ishlab chiqarish markazlari bo'yicha qayta taqsimlash; har bir xarajatlar ishlab chiqarish markazlariga to'g'ri keladigan ustama xarajatlarning alohida stavkasini hisoblash; ustama xarajatlarni har bir xarajatlarning ishlab chiqarish markazlariga to'g'ri keladigan xarajatlarni mahsulot turlari yoki boshqa tanlangan tannarx obyektlariga taqsimlash.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashda turli xil taqsimlash bazalaridan foydalanish. Ustama xarajatlarni mahsulotlar turlari bo'yicha taqsimlashda asosiy ishlab chiqarish ishchilarining ish soatlari (mehnat-soatlari) yoki asbob-uskunalar ish soatlari (mashina-soat) taqsimlash bazasi sifatida olinishi. Boshqa taqsimlash bazalari.

Ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasini aniqlash formulasi.

Budjetlashtirilgan ustama xarajatlar. Ikkita taqsimlash bazalaridan foydalanish. Kompaniyaning amaliy misolida budjetlashtirilgan faoliyat darajalari va taqsimlash bazalari hamda budjetlashtirilgan ustama xarajatlari hisobi. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan material xarajatlar va mehnat xarajatlar hamda budjetlashtirilgan ustama xarajatlar asosida mahsulot birligi tannarxini hisoblash.

Xizmat ko'rsatuvchi bo'limlar xarajatlarini taqsimlash usullari. Ishlab chiqarishga doir ustama xarajatlar hisobining funksional usuli.

Xizmat ko'rsatuvchi bo'limlar xarajatlarini asosiy ishlab chiqarish bo'limlariga taqsimlash va qayta taqsimlanishi mohiyati va zaruriyati. Xizmat ko'rsatuvchi bo'limlar xarajatlarini taqsimlash usullari: tug'ridan-to'g'ri (direct); qadamba-qadam (step-down); takror taqsimlash (step-by-step); chiziqli tenglama tizimi (reciprocal). Ushbu metodlarning amaliy qo'llanilishi.

Har bir metodda olingan natijalarni solishtirish. Budjetlashtirilgan ustama xarajatlarni taqsimlash stavkalarini hisoblash.

Servis xizmatlari bo'limlari xarajatlarini taqsimlashning alternativ usullari asosida hisoblangan ustama xarajatlarini taqsimlash stavkalari o'rtasidagi farqlar. U yoki bu mahsulotlar birligi tannarxi solishtirilishi asosida ushbu mahsulotni ishlab chiqarishni to'xtatish yoki davom ettirish to'g'risidagi qarorlar qabul qilish.

An'anaviy tizimda ustama xarajatlar butun mahsulotga bir qancha taxminiy asoslarga ko'ra taqsimlanishi mavjudligi. O'zini oqlamagan tomonlari va kamchiliklari.

Axborot texnologiyalari hamda fanning yutuqlari, jumladan tannarxning funksional kostingini qo'llanilishi tannarxining kamayishida muhim omil ekanligi. Korxonalarda AVS tizimini qo'llashga asosiy sabablar va zaruriyatlar.

## **V-BOB. TANNARXNING KOSTING (COSTING) TIZIMLARI**

### **5.1-mavzu. Kosting tushunchasi va turlari. Mahsulot tannarxini buyurtmali kostingi (Job Order Costing) mohiyati va yondashuvlari**

Mahsulot tannarxini costing qilish tizimlari: buyurtmali costing yoki jarayonli costing. Bu ikkita tizimning xususiyatlari va bog'liqligi.

Tannarxning buyurtmali kostingini qo'llaydigan korxonalar: uy qurilishi korxonalari, maslahat firmalari, huquqshunoslik firmalari, audit va buxgalteriya hisobi xizmati tashkilotlari, reklama agentliklari hamda meditsina xizmati korxonalari. Ushbu usul ishlab chiqarishning barcha tarmoq va sohalarida, masalan, kemasozlik, samolyotsozlik, kiyim-kechak, eshik-deraza, mebel va turli boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish sohalarida keng qo'llanilishi. Buyurtmali usulda hisob obyekti va ularning turlari.

Buyurtmali kalkulyatsiya usulining asosiy xarakterli xususiyatlari. Professional xizmat ko'rsatuvchi (servis) korxonalarida buyurtmali costingda yondashuvlar:

- yagona to'g'ridan-to'g'ri xarajat moddasi (odatda to'g'ridan-to'g'ri professional mehnat), yagona bilvosita (ustama) xarajat zarrachasi hamda yagona ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasi;
- ko'p to'g'ridan-to'g'ri xarajat moddasi (to'g'ridan-to'g'ri professional mehnat, fotonusxa, kompyuter soati va boshqa zarrachalar) va yagona bilvosita (ustama) xarajat zarrachasi hamda yagona ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasi;
- ko'p to'g'ridan-to'g'ri xarajat moddasi va ko'p bilvosita (ustama) xarajat zarrachasi hamda ko'p ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasi.

Buyurtmali kostingda budgetlashtirilgan ustama stavkasi.

Buyurtmali kostingning turlari va qo'llanilishi.

Buyurtmali kosting boshlang'ich hujjatlar hamda ular asosida yuritiladigan ish tannarxi yozuvlari yoki buyurtma ish jadvali. Ish tannarxi yozuvlarini yuritish tartibi.

Qo'llanilayotgan ish tannarxi yozuvlarining kompaniya maxsus axborotlarga bo'lgan talablariga javob berishi.

Buyurtmali kosting usulida buyurtma tannarxiga kiritiladigan alohida turdagi xarajatlار, jumladan bevosita material xarajatlari, bevosita mehnat xarajatlari va bilvosita ishlab chiqarish ustama xarajatlarini aniqlash tartibi.

Buyurtmali kalkulyatsiya usulida buyurtmalar bo'yicha yuritilgan buyurtma kartochlari va tuzilgan kosting kartochkalari asosida buxgalteriyada ishlab chiqarish xarajatlari, tayyor mahsulotlar tannarxi va ularni sotish natijalari.

Buyurtmali usulda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilinishi: ta'minotchilardan asosiy va yordamchi materiallarning kelib tushishi; asosiy va yordamchi materiallarni ishlab chiqarishga chiqarish; ish haqi va ajratmalarni hisoblash; oy davomida ish haqini berish; boshqa ustama ishlab chiqarish xarajatlarni yozish; ustama ishlab chiqarish xarajatlarini buyurtmalar bo'yicha taqsimlash; buyurtmani yakunlash va tayyor mahsulotlarni tayyorlash; realizatsiya va realizatsiya qilingan mahsulot tannarxini hisobdan chiqarish.

Budgetlashtirilgan ustama xarajatlari stavkasidan foydalanish. Budgetlashtirilgan ustama xarajatlari stavkasini qo'llashning asosiy sababi. Budgetlashtirilgan ustama xarajatlari stavkasini hisoblash bosqichlarida amalga oshirilgan ishlar.

Taqsimlanmay qolgan ustama hamda ortiqcha taqsimlangan ustama summasi. Ularni qoplashning usullari: zudlik bilan yozuvlarni amalga oshirish; zahiralار va sotilgan tovarlar tannarxi o'rtasida taqsimlash.

Buyurtmali kostingning ikkita turi: haqiqiy kosting (actual absorption costing); normal kosting (normal absorption costing).

